

ZAMONAVIY FIZIOTERAPIYA BO'LIMINI TUZILISHI, ISH TARTIBI VA FIZIOTERAPIYA HAMSHIRASINING VAZIFALARI

*Akbarova Dilshodaxon Shuxratbekovna
2-son Farg'ona Abu Ali Ibn Sino nomidagi
Jamoat salomatligi texnikumi
“Hamshiralik ishi”kafedrasi o’qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy fizioterapiya bo'limini tuzilishi, ish tartibi va fizioterapiya hamshirasining vazifalari haqida aytib o'tilgan va muallif tomonidan tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: fizioterapiya, elektroterapiya, magnitoterapiya, refleksoterapiya, akkupunktura, ingalyatsiya.

THE STRUCTURE OF THE MODERN PHYSIOTHERAPY DEPARTMENT, WORK ORDER AND DUTIES OF THE PHYSIOTHERAPY NURSE

Annotation: In this article, the structure of the modern physiotherapy department, the work order and the tasks of the physiotherapy nurse were mentioned, and recommendations were given by the author.

Keywords: physiotherapy, electrotherapy, magnetotherapy, reflexotherapy, acupuncture, inhalation.

Fizioterapiya bo'limida ishning to‘g‘ri tashkil qilinishi uchun har bir tibbiy xodim bo‘lim tuzilishi bilan – fizioterapiya xonasi faoliati, yuritiladigan hujjatlar kabi ma'lumotlarni yaxshi bilishi zarur. Kasalxonalarda davolanayotgan 90 %ga va ambulator davolanayotgan 60 %ga yaqin bemorlarga fizioterapiya muolajalari buyuriladi. Shunda bitta bemorga 10–12 ta muolaja to‘g‘ri keladi. Zamonaviy fizioterapiya bo‘limi quyidagilardan iborat:

1. Ko‘rik xonasi.
2. Yuvinish va hojatxona.
3. Elektrterapiya xonasi.
4. Yorug‘lik bilan davolash xonasi.
5. Massaj xonasi.
6. Suv bilan davolash xonasi.
7. Ingalatsiyali muolajalar xonasi.
8. Akkupunktura xonasi va b.

Bu xonalar sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilingan holda tozalanib turishi va barcha kerakli apparatlar bilan jihozlangan bo‘lishi kerak.



Fizioterapiya 2 qismga bo‘linadi :

Umumiy fizioterapiya – organizmning normal va patologik holatlarida ta'sir etuvchi fizik omillarning xususiyatlarini va ta'sir mexanizmini o‘rganadi.

Xususiy fizioterapiya – o‘rganilgan fizik omillarni davolash va kasallikni oldini olish maqsadida qo‘llanilishini o‘rganadi.

Fizik omillarning xarakteristikasi

- 1.Toksigenligi yoki zaharli xususiyati yo‘q.
- 2.Og‘riqlik sezgirligini chaqirmaydi.
- 3.Og‘riq qoldiruvchi, yallig‘lantirishga, spazmga qarshi, tonusni oshiruvchi va bakteriotsid ta'sir qilish xususiyatiga ega.
- 4.Organizm reaktivligiga ta'sir qilish, shu bilan birga tabiiy va maxsus immunitetni oshirish xususiyatiga ega.
- 5.Organizmda har xil biologik aktiv moddalar hosil bo‘lishiga yordam beradi. Masalan : vitamin D, gistogramin, atsetilxolin, serotonin va boshqalar.

Fizioterapiya – bu patogenetik va simptomatik davolashdir, ya’ni fizik omillar kasallik patogeneziga yoki rivojlanish mexanizmiga ta'sir qilib, ularning belgilarini, ya’ni simptomlarini yo‘qotishga egadir.

Bundan tashqari fizioterapevtik muolajalar bilan kasallikni oldini olish – fizioprofilaktika ham alohida o‘rin tutadi.

Fizioprofilaktika 2 qismdan iborat.

Birinchi qismi – kasallikni oldini olish;

Ikkinci qismi – kasallikning asoratini oldini olish.

Fizioterapevtik muolajalar organizmga teri va shilliq qavatda joylashgan nerv tolalari orqali ta'sir qilib, kerakli organlarni qo'zg'atadi. Bu turli muolajalarda turlicha bo'ladi - ba'zida tez, ba'zida sekin namoyon bo'ladi.

Avval fizik omillar energiyasining organizmga yutilishi sodir bo'ladi. Bu fazada sodir bo'ladigan hamma jarayonlar fizika qonuniga bo'ysinadi. Bunda fizik omillarning tanaga ta'sir qilish chuqurligi, to'qima turi, qaysi to'qimalarda energiya qay tarzda yutiladi, issiqlikning paydo bo'lishi, ionazitsiya hodisasi, molekula hosil bo'lishi va h.k. Masalan - nurlanish vaqtida nurlar epidermisga bir necha mikron chuqurligiga kirib boradi va o'z yo'lida suv molekulalarini kuchli ionlanishishini hosil qiladi, buning natijasida to'qimalarda issiqlik paydo bo'ladi. Past chastotali impuls toklari harakatlanuvchi nervlarda 0,5-2 sm chuqurlikda ionlarni doimiy darajasini o'zgartiradi, buning asosida harakatlantiruvchi qo'zg'atish yordamida mushaklarning qisilishi kuzatiladi.



Fizik omillar maxsus va nomaxsus ta'sir ko'rsatadi. Bir necha fizik omillar ta'sirida qon aylanishi tezlashib, modda almashinuvi kuchayadi – bu nomaxsus ta'sirdir, ya'ni bir necha omillar uchun umumiyl bo'lgan ta'sirdir.

Shu bilan birga har bir fizik omillarning o'ziga xos maxsus ta'siri ham bo'ladi, ya'ni faqat bitta fizik omil uchun tegishli bo'lgan ta'siri.

Masalan : faqat impuls toklari bilan mushaklarni qo'zg'atish mumkin; UFO nurlari bilan ta'sir etganda «D» vitaminini hosil bo'lishi; vannalarning kimyoviy tarkibiga qarab o'ziga xos maxsus ta'siri bo'ladi.

Fizioterapiyada muolajalar ikki xil turga bo‘linadi. Biri – asosiy muolajalar, ikkinchisi qo‘sishimcha muolajalardir. Har bir fizioterapevtik muolaja asosiy yoki qo‘sishimcha bo‘lishi mumkin.

Asosiy muolajalar - bunda ta’sir ichki organlarda kasallikni qaytarishga qaratilgandir. Masalan : DMV buyrak usti beziga ta’siri natijasida gormonlarni stimulyasiyalaydi; elektrouyqu qondagi qand miqdorini kamaytiradi.

Fizioterapevtik muolajalar kasallikning patogeneziga qarab, kasallikning kelib chiqish mexanizmiga ta’sirini hisobga olib belgilashimiz kerak.

Fizioterapevtik muolajalar organizmning umumiy holatiga, patologik jarayon spetsifikligiga, uning klinik holatlariga, bosqichiga, yo‘ldosh kasallikkarga qarab tavsiya etiladi. Fizik omillarning dozasini belgilayotganimizda bemorning shu vaqtdagi boshlang‘ich holatiga va patologik jarayonning belgilariga, organizmning sezuvchanligiga e’tibor berishimiz lozim.

Shuni doim esda tutishimiz karakki, fizioterapevtik muolajalarni asosan kichik intensivlikda berish maqsadga muvofiqdir. Muolajalarni kichik dozada berish hujayra funksiyasini qo‘zg‘atadi, katta dozalar bosadi.

Badan terisi tashqi muhitning turli-tuman ta’sirotlarini qabul qiluvchi ko‘p sonli nerv uchlari bilan ta’minlanganligi tufayli, teridan ichki a’zolarga reflektor reaksiyalar qoidasi bo‘yicha qon aylanishiga ta’sir ko‘rsatish mumkin. Nerv retseptorlarining issiq yoki sovuqdan ta’sirlanishi natijasida tomirlar teridagina emas, balki ichki a’zolarda ham kengayadi yoki torayadi. Chalg‘ituvchi vositalar (bankalar, xantalmalar, zuluklar, kompresslar, vannalar va boshqalar)ni qo’llash shu qoidaga asoslangan. Biroq bu muolajalar bemorda og‘ir asoratlar keltirib chiqarishi mumkin, shuning uchun hamshira ularni bajarish usulini, ta’sirini, ularni qo’llashga ko‘rsatmalar va monelik qiladigan hollarni yaxshi bilishi kerak.

Fizioterapiya bo‘limida hamshiraning vazifalari



Fizioterapiya bo‘limi hamshirasi o‘rta tibbiy ma’lumotga ega bo‘lib, fizioterapiya kursi bo‘yicha malaka oshirgan bo‘lishi, muolajalarni to‘g‘ri bajara olishi lozim.

Hamshira ish jarayonida qaysi apparat qanday ishlatalishi, ehtiyot choralari va ta’sir muddatini bilishi, texnika xavfsizligiga riosa qilishi, bemorga favqulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordamko‘rsata bilishi lozim. Muolajani o‘tkazishdan oldin hamshira bemorga qanday yotish yoki o‘tirish lozimligini aytib, bemorlarni ogohlantirib, apparatni ishlatadi, bu payt bemorda bo‘ladigan o‘zgarishlar va muolaja vaqtini, uning nima uchun zarurligini tushuntirib beradi. Muolaja vaqtida bemor ahvoldidan xabar olib turadi. Muolaja tugaganidan so‘ng, daftariga qayd etib, uni dam olish xonasiga kuzatib qo‘yadi.

Hamshira apparatning ishlashi, signal soatlarning ko‘rsatkichlarini kuzatib turadi. Muolaja davomida xonadan chiqib ketmasligi lozim. Hamshira o‘tkazilgan muolajalar soni va bemorlar ro‘yhatini ma’lum normalar bo‘yicha olib bibr, ularni jurnalga yozib boradi. Nazorat texnika jurnaliga apparatlarning joriy ta’miri haqida ma’lumotlarni yozib boradi. Ish vaqtı tugaganidan so‘ng, hamshira hamma apparatlarni umumiyl tok tarmog‘idan uzib, xona derazalarini va hamma suv kranlarini yopadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.K.E Ulho’jayeva, B.T Xudoyberganova “Fizioterapiya va tibbiy reabilitatsiya.
- 2.Hamshiralik ishi asoslari K.U.Zokirova
- 3.Bemorlarni uyda vashifoxonada parvarish qilish F.G.Nazirov
- 4.Umumiyl amaliyot hamshiralari uchun amaliy ko’nikmalar to’plami A.Godoev
- 5.Hamshiralik ishi asoslari Q.S.Inomov

Qo’shimcha adabiyotlar:

- 1.Axmedov SH.A. «Anatomiya i fiziologiya s patologicheskimi osnovami». Toshkent, Tasvir nashriyoti, 2009 god.
- 2.Ziyamutdinova G.X., Axmedov SH.A. «Normal anatomiya va fiziologiya». Toshkent, O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi nashriyoti, 2009 yil.
- 3.«Xammabop tibbiyot qo‘llanmasi». Toshkent, 2006 y.

Internet saydlari:

- www.ziyonet.uz.
www.google.co.uz
www.medical.uz